NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-9]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

UO‘ K 811.512.133’37

# SAIDA ZUNNUNOVA POETIK TILIDA VATAN KONSEPTINING LEKSIK-SEMANTIK VERBALLASHUVI

**Siddiqova Kamola Rasuljon qizi**
Namangan davlat universiteti tayanch doktorant
ORCID: 0009-0004-7497-2205
E-mail: siddiqovak@gmail.com

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada shoira Saida Zunnunova she’riyatida Vatan konseptini ifodalovchi leksik birliklar aniqlanib, ularning leksik-semantik xususiyatlari hamda verballashuvi tadqiq etildi. Tadqiqotda lingvokonseptual, leksik-semantik, kontekstual, kognitiv va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari Saida Zunnunova she’rlarida Vatan konsepti shunchaki geografik makon emas, balki ona, muhabbat, mehr, sog‘ inch, tarix va milliy qadriyatlar bilan uzviy bog‘ liq bo‘ lgan ko‘ p qatlamli mental tuzilma ekani aniqlandi. Vatan konseptining yadro va periferik qatlamlari aniqlanib, ularning poetik matndagi xususiyatlarining qay tarzda verballashuvi ochib berildi. Tadqiqot natijalari o‘ zbek poetik matnlarini lingvokonseptual tahlil qilish, kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘ rganish, o‘ zbek kognitiv poetikasini rivojlantirishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.*

***Kalit so‘ zlar:*** *konsept, tushuncha, badiiy matn, badiiy konsept, Vatan, verballizatsiya, verbalizator, leksik-semantik tahlil, konseptosfera, Saida Zunnunova.*

## ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКАЯ ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «РОДИНА» В ПОЭТИЧЕСКОМ ЯЗЫКЕ САИДЫ ЗУННУНОВОЙ

***Аннотация:*** *В статье выявлены лексические единицы, выражающие концепт «Родина» в поэзии Саиды Зуннуновой, а также исследованы их лексико-семантические свойства и способы вербализации. В работе использованы методы лингвоконцептуального, лексико-семантического, контекстуального, когнитивного и сравнительного анализа. Результаты исследования показали, что концепт «Родина» в стихотворениях Саиды Зуннуновой представляет собой не просто географическое пространство, а многослойную ментальную структуру, неразрывно связанную с материнством, любовью, привязанностью, чувством тоски, историей и национальными ценностями. Были определены ядерный и периферийный слои концепта «Родина» и выявлено, как их признаки вербализуются в поэтическом тексте. Результаты исследования имеют важное научное значение для лингвоконцептуального анализа узбекских поэтических текстов, их изучения с позиций когнитивной лингвистики и развития узбекской когнитивной поэтики.*

***Ключевые слова:*** *концепт, художественный текст, художественный концепт, Родина, вербализация, вербализатор, лексико-семантический анализ, концептосфера, Саида Зуннунова.*

## LEXICO-SEMANTIC VERBALIZATION OF THE CONCEPT OF HOMELAND IN SAIDA ZUNNUNOVA’S POETIC LANGUAGE

***Abstract:*** *This article identifies lexical units expressing the concept of Homeland in the poetry of the poetess Saida Zunnunova, and their lexical-semantic properties and verbalization are studied. The research used linguoconceptual, lexical-semantic, contextual, cognitive and comparative analysis methods. The results of the research revealed that the concept of Homeland in Saida Zunnunova’s poems is not just a geographical space, but a multi-layered mental structure inextricably linked with motherhood, love, affection, longing, history and national values. The core and peripheral layers of the concept of the Motherland were identified, and how their features are verbalized in the poetic text was revealed. The results of the research are of significant scientific importance in the linguo-conceptual analysis of Uzbek poetic texts, the study of them from the point of view of cognitive linguistics, and the development of Uzbek cognitive poetics.*

***Keywords:*** *concept, concept, literary text, artistic concept, Motherland, verbalization, verbalizer, lexical-semantic analysis, conceptosphere, Saida Zunnunova.*

## Kirish

Bugungi kunda lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik kabi til va tafakkur munosabatini tadqiq etuvchi zamonaviy tilshunoslik sohalari uchun «konsept» xususidagi tadqiqotlar ahamiyatli bo‘ lib bormoqda. Chunki konsept orqali inson, til, tafakkur va madaniyat bog‘ liqligi, xalqlarning milliy qadriyatlari, mentaliteti verballashadi.

Lingvomadaniy konseptlar ijodkorlar tomonidan yaratilgan badiiy asarlar tili orqali o‘ rganish dunyo tilshunosligida jadal tus olib, bu borada ko‘ plab tadqiqotlar yaratilmoqda. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan poetik asarlarda shoirning ijodiy tafakkuri, his-tuyg‘ ulari aks etishini asoslash, ularning mazmun-mohiyatini kelajak avlodga yetkazish borasidagi ishlar har qachongidan dolzarb bo‘ lib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, hozirgi o‘ zbek tilshunosligida ham poetik asarlarning lingvokonseptual va leksik-semantik tahlili, ulardagi lingvistik birliklarga xos kognitiv jarayonlarni mukammal tahlil etishga ehtiyoj sezilmoqda.

## Adabiyotlar tahlili

Konsept dastlab S.Askoldov tomonidan 1928-yilda «Konsept va so‘ z» maqolasida qo‘ llanilgan. S.Askoldov konseptni turli xildagi millat vakillarining muloqotiga omil bo‘ la oladigan kommunikativ jarayon deb ataydi.[1] Sababi insonning kommunikativ holatini yuzaga chiqarishda ham, bir so‘ z yoki atamani tahlil qilishda ham, muloqot jarayonida ham, albatta, dastlab ong, tafakkur, idrok ishga tushadi.

Konsept lotincha conceptus so‘ zidan olingan bo‘ lib, «tushuncha» degan ma’noni anglatadi. Shu bois bo‘ lsa kerak uzoq yillar konsept termini tushuncha so‘ zi bilan sinonim tarzida foydalanib kelindi. Biroq so‘ nggi yillardagi tadqiqotlarda bu konsept va tushuncha bir-biridan farqli tushuncha ekanligi ta’kidlab kelinmoqda. Olim V.Z.Demyankov ham konsept va tushunchani tarixiy dubletlar ekanligini, lekin bugungi kunda ular bir-biridan farqlanishini aytib, quyidagicha ta’rif beradi: «Konsept – og‘ zaki belgining mazmun tomoni, tushuncha esa voqelik. Ular inson hayotining aqliy, ma’naviy va hayotiy muhim moddiy sohasiga tegishli bo‘ lgan, odamlarning ijtimoiy tajribasi bilan rivojlangan va mustahkamlangan, ularning hayotida tarixiy ildizlarga ega bo‘ lgan, ijtimoiy va subyektiv ravishda tushunilgan jarayonlardir.[2]

Jahon tilshunosligida bo‘ lgani kabi o‘ zbek tilshunosligida ham konsept atamasi ta’rifi, konsept va tushuncha masalasi hanuzgacha munozarali. Tilshunoslarimiz tomonidan so‘ nggi o‘ n yil davomida konsept va uning tadqiqiga oid maqtanarli darajada samarali ishlar qilindi. Ular orasida O‘ .Yusupovning konsept va tushuncha xususidagi qiyosiy fikrlari juda mashhur: «Konsept bilan tushunchani aysbergga o‘ xshatish mumkin. Agar konsept aysberg bo‘ lsa, uning suvdan chiqib turgan qismi tushunchadir».

Konsept ta’rifining xilma-xilligi uning tasnifiga ham tegishlidir. Konsept turlari ichida eng ko‘ p tadqiq etilishi talab qilinadigani badiiy konseptlardir. Chunki badiiy matn badiiy konseptlar yig‘ indisidan iboratdir.

Badiiy matn insonni ruhan to‘ lqinlantirish, yig‘ latish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, o‘ yga cho‘ mdirish, estetik tafakkurni shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o‘ rgatish kabi ko‘ plab imkoniyatlarni o‘ zida mujassam qilgan bo‘ ladi [3]. Shu sabab va xususiyatlar natijasida badiiy konsept paydo bo‘ ladi. Badiiy konseptlar muallif dunyoqarashi, poetik tafakkuri, milliy-madaniy qarashlari, individual lisoniy olamini ochib berishda katta ahamiyatga ega.

S.A.Askoldov konseptni kognitiv, badiiy va estetik konseptlarga ajratar ekan, badiiy konseptlarni «jamiyatni bilish konseptlari, san’at konseptlari» deya ta’riflaydi [`1]. E.A.Ogneva ham konseptlarni milliy, individual-muallifiy hamda badiiy konsept ko‘ rinishida turlarga bo‘ ladi. Badiiy konsept mazmunining tavsifi uning semantik xususiyatlari, verballashish usulllari yetarli darajada aniqlash imkonini beradigan imkon qadar ko‘ proq kontekstlarni aniqlashga asoslangan [4].

Bizningcha ham badiiy konsept badiiy matn muallifining individual qarashlari, shaxsiy poetik tafakkuridan kelib chiqib tasvirlansa-da, lekin muallif individual tafakkurining reprezentatsiyalashuvi uning millatiga xos milliy qarashlaridan butunlay ayricha hodisa emas. Chunki muallifning individual tafakkuri u yashayotgan millat yoxud ijtimoiy guruhning qarashlari, tarixi, qadriyatlari, e’tiqodi natijasida shakllangan bo‘ ladi. Bu haqida L.V.Miller ham b badiiy konsept «nafaqat shaxsiy ongga, balki ma’lum etnomadaniy jamiyatning psixomental sohasiga tegishli bo‘ lgan murakkab mental shakllanish, madaniy xotirada shakllangan hamda yangi badiiy ma’nolarni yaratishda qurilish materiali sifatida harakat qila oladigan universal badiiy tajriba» [5] deya ta’riflaydi.

## Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda shoira Saida Zunnunova she’riyatida «Vatan» konseptini ifodalovchi leksik birliklarning leksik-semantik guruhlashtirilishi, ularning makoniy, milliy-madaniy, emotsional, ijtimoiy-axloqiy, temporal belgilari shakllantirildi. Tadqiqotda Vatan konseptining asosiy va periferik belgilarini aniqlash uchun konseptual tahlil, Vatan konseptini ifodalovchi leksik birliklarning semantik guruhlarga ajratish uchun leksik-semantik tahlil, leksik birliklarning she’riy kontekstdagi ma’nosini aniqlash uchun kontekstual tahlil hamda leksik birliklar ortida turgan konseptual belgilarni ochib berish uchun kognitiv tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Natijalar va ularning tahlili**

Konsept inson ongida shakllangan ko‘ p qatlamli mental tuzilmadir [6]. Uning turli verbalizatorlar, ya’ni til birliklari bilan namoyon bo‘ lishi verbalizatsiya hisoblanadi. Verbalizatsiya jarayonida badiiy konsept konteksda yangi konseptual mazmun ifodalaydi. Muallifning milliy, madaniy, tarixiy va emotsiotsional tajribasini, individual dunyoqarashini aks ettiradigan ana shunday muhim konseptlardan biri «Vatan» konseptidir.

«Vatan» konsepti alohida shaxs uchun ham, butun jamiyat uchun ham muhim ahamiyatga ega bo‘ lgan olam tasvirlarining asosiy birliklaridan biridir [7]. Ayniqsa, «Vatan» konseptining poetik matnlardagi ifodasi va leksik-semantik tahlili avlodlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, vatanga bo‘ lgan muhabbat va fidoyilik tuyg‘ ularini singdirishda ahamiyatlidir.

O‘ zbek she’riyatida «Vatan» konseptual maydoni *ona zamin, ona, musaffo osmon, makon, yurt, tuproq, O‘ zbekiston, ozodlik* kabi umumbadiiy konseptlardan tashkil topgan[8]. Shoira Saida Zunnunova ijodiy dunyosida esa Vatan oddiy geografik makon emas, balki ona Yer, tug‘ ilgan joy, sog‘ inch, muhabbat, xalq, xotira, mas’uliyat, fidoyilik kabi tushunchalar bilan bog‘ langan konseptual birlik sifatida verballashadi.

«Shovullagan yashil, cheksiz o‘ rmonlar,
*Husningizga sira keltirmasman shak.*
*Lekin, ne qilayki, olisdan chorlar*
*Rayhonlar hid sochgan torgina eshik»[9].*

*Mazkur misralar shoiraning «Sog‘ inish» she’ridan olingan bo‘ lib, she’rda lirik qahramonning Vatanga bo‘ lgan cheksiz mehr-u muhabbati, sog‘ inchi ifodalangan. Lirik qahramon olis yurtlarga sayohati davomida Vataniga bo‘ lgan sog‘ inch azobiga dosh bera olmay ortga bir kundayoq ortga qaytadi va «Shovullagan yashil, cheksiz o‘ rmonlardan» go‘ yoki bu qilmishi uchun uzr so‘ raydi. Axir ne qilsinki, uni «Rayhonlar hid sochgan torgina eshik» olisdan bo‘ lsa ham tinmay o‘ ziga chorlardi. She’rda «Vatan» konsepti torgina eshik hamda sog‘ inch emotsional verbalizatorlari orqali verballashmoqda.*

*«Ko‘ nglim hordiq tusab intilgan edim…*
*Dil xuddi chumoli ko‘ targan ushoq.*
*Tiniq barglar yelda shivirlar asta…*
*Biz tomonda hozir meva g‘ arq pishdi» [9].*

Mazkur satrlardagi «*Dil xuddi chumoli ko‘ targan ushoq*» o‘ xshatishi shoiraning individual mualliflik mahsuli bo‘ lib, chumoli va ushoq obrazi lirik qahramonning sog‘ inchdan ezilgan, siqilgan, bo‘ laklangan qalbining ifodasi bo‘ lib kelmoqda. Vaholanki, lirik qahramon dam olib, hordiq chiqarish maqsadida uzoq o‘ lkaga sayohat qilgandi. Ammo sayohatdan zavq olayotgan inson qiyofasi o‘ rniga og‘ ir sog‘ inch yukini ezilib, sabr bilan olg‘ a ketayotgan kognitiv subyekt – chumoli obrazi shakllanadi. «*Biz tomonda hozir meva g‘ arq pishdi*» misrasi orqali esa makon almashinuvi vizual va ta’m bilish konseptlari asosida yuz beradi. Lirik qahramon o‘ zga yurtning salqin, sokin va yashil o‘ rmonlarini o‘ zbekning jazirama havosiga, mevalar g‘ arq pishgan bog‘ lariga solishtiradi.

Shoiraning quyidagai she’rida Vatanga bo‘ lgan yuksak muhabbati hamda hurmati ifodalangan:

*«Sevaman, Vatanim, sevaman jondan,*
*Bog‘ ingni, cho‘ lingni, har nigohingni.*
*Iloji bo‘ lsa-yu bag‘ rimga bossam*
*Hatto qoldirmasdan bir giyohingni» [9].*

Shoira uchun atrofdagilarning unga havas bilan tikilishlari, hurmat, muhabbat va mehrlarining sababchisi yolg‘ izgina Vatandir. U uchun Vatanning tuprog‘ -u toshi, bog‘ lari, cho‘ llari, hatto har bitta giyohi ham aziz va mukarram. Lirik qahramon iloji bo‘ lsa, barchasini bag‘ riga bosib muhabbatini izhor etsa. She’rda Vatan muhabbati bilan bir qatorda iftixor, baxt va shukronalik tuyg‘ ulari kuylanadi. Lirik qahramon Vatanga qarata «*Ne baxtki, qayerda saodat kulsa, Vatanim hamisha o‘ zingsan doya*» deya qilgan murojaatida ham o‘ zining har bir muvaffaqiyat va yaxshiliklari sababchisi sifatida Vatanni ko‘ rsatadi. Parchada keltirilgan «*sevaman*» fe’li Vatanga nisbatan subyektning emotsional munosabatini verbal ifodalamoqda.

*«Haqiqat, adolat kulgan Vatanda*
*Senga faqat-faqat baxt o‘ zi yo‘ ldosh.*
*Saodat kutadi har bir qadamda*
*Diling chekmas azob, ko‘ zing to‘ kmas yosh,*
*Chunki Vatanimda azizdir har bosh» [9].*

Saida Zunnunova qalamiga mansub ushbu satrlarda «Vatan» konsepti shunchaki jug‘ rofiy hudud emas, balki ma’naviy, insoniy qadriyatlar, ruhiy xotirjamlik va farovonlik mujassam bo‘ lgan muqaddas makon sifatida talqin etiladi. Vatan konseptining negizida haqqoniylik va adolat ustuvorligi yotadi. Shu bois lirik qahramon nazdida ijtimoiy-huquqiy va ma’naviy qadriyatlar hisoblanmish «Haqiqat, adolat kulgan Vatanda» hamisha baxt va saodat yo‘ ldosh bo‘ ladi. Misradagi «kulgan» fe’li bevosita metaforik birikmalarni hosil qilib she’rning badiiy qiymatini yanada oshirgan. So‘ nggi

misralardagi inson emotsional holatini ifodalovchi azob va ko‘ z yoshning chekmas, to‘ kmas fe’llari orqali antiteza usulida inkor etilishi va Vatandagi har bir boshning aziz etilishi inson qadri va shaxs daxlsizligi yuqori o‘ ringa qo‘ yilganini anglatadi. Quyidagi misralar esa go‘ yoki ushbu misralarning mantiqiy davomi sifatida keladi:

*«Chal, do‘ stim, yashaylik, suraylik davron,*
*O‘ z Vatan, o‘ z aziz tuprog‘ imizda» [9].*

Ushbu misralarda «Vatan» konsepti erkinlik, hayot sevinchi va g‘ urur manbayi sifatida verballashmoqda. «Aziz tuproq» leksik-semantik birligi metonimiya usulida Vatan ma’nosida qo‘ llangan va birikma tarkibidagi aziz sifati muqaddaslik va qadrlilik semasini yuklaydi. Yuqoridagi har ikki she’riy parchada Vatan bevosita nominativ verbalizator sifatida kelgan.

*«Hammangiz ham a’lochi, biri biridan sara,*
*Biri biridan o‘ tkir dono o‘ g‘ il-qizlarsiz.*
*Xulqingiz shuncha xushki, o‘ xshashligi yo‘ q sira,*
*Vatanning istiqboli – kelajagi sizlarsiz» [9].*

Vatanning yosh o‘ g‘ il-qizlariga qarata aytilgan ushbu satrlarda shoira belgi bildiruvchi sifatlar gradatsiyasidan (a’lochi, sara, o‘ tkir, dono) foydalanadi. She’rda «Vatanning istiqboli – kelajagi sizlarsiz» misrasida Vatan konseptini statik makondan dinamik rivojlanuvchi kelajak semasiga ko‘ chirish orqali Vatan konseptining temporal komponenti faollashgan. «Istiqbol» va «kelajak» birliklari konseptni vaqtning kelajak bosqichlari bilan bog‘ lab, Vatan haqidagi tasavvurni zamonaviy holat bilan cheklamasdan, uning kelgusi taraqqiyoti bilan qamrab olishni ko‘ rsatadi.

*«Ona –Yer, aziz Yer, dardingni olay,*
*Qayering silasam tinchlanar joning.*
*Qayerda ko‘ pirmish asabing, qoning,*
*Ayt-chi, qayeringga qulog‘ im solay?» [9].*

Ushbu she’r 1966-yilda Toshkentda bo‘ lgan kuchli zilzila oqibatida yuz bergan falokatlardan ta’sirlanib, xalq uchun hamdardlik sifatida yozilgan. Chunki she’rda lirik qahramon zilzila oqibatida yuz bergan talafotlar, bolalarning ko‘ zlaridagi qo‘ rquvlarni yulib olib yulduz kabi baxt bo‘ lib porlashni orzu qiladi. Buning uchun u Yer kurrasiga «Ona Yer», ya’ni vatan sifatida murojaat qiladi. Uning dardini olishni, natijada yurtdoshlarning tinchini, sokin tunini qaytib berishni orzulaydi. Parchada Yerga insoniy-fiziologik belgilarning (asabing, qoning, joning) biriktirilishi Vatanni tirik, og‘ riqni his qiluvchi va hamdardlikka muhtoj vujud sifatida verballashadi («dardingni olay», «qulog‘ im solay»). Vatan konseptining verbalizatori bo‘ lib kelgan Yer «zamin, makon, tuproq» kabi kabi leksik-semantik ma’nolarni ifodalaydi. Ammo poetik konteksda u shunchaki yer emas, balki «tug‘ ilgan joy, milliy makon, mehr, qadriyat, hamdardlik, himoya, g‘ amxo‘ rlik» semalarini birlashtirib, Vatan konseptining verbal belgisi sifatida namoyon bo‘ ladi.

Quyida «Vatan» konseptining verballashuvi va verbalizatorlari Saida Zunnunova she’rlarida qanday konseptual ma’no ifodalashi keltirilgan:

| **Verbalizator turi** | **Leksik birliklar** | **Konseptual ma’no** |
|---|---|---|
| **Bevosita verbalizatorlar** | Vatan, Vatanim, Vatanning | Vatan – tug‘ ilib, o‘ sgan makon |
| **Makoniy verbalizatorlar** | Yurt, zamin, yer, tuproq, cho‘ l, bog‘ | Vatan – har bir bo‘ lak va parchasi aziz bo‘ lgan makon |
| **Emotsional verbalizatorlar** | Sevmoq, sog‘ inch, muhabbat, baxt, shukronalik | Vatan – sevib, sog‘ inib, baxtdan shukronal aytib yashaladigan maskan |
| **Ijtimoiy-axloqiy verbalizatorlar** | Haqiqat, adolat, aziz bosh | Vatan – adolat, haqiqat va inson qadri ustun bo‘ lgan jamiyat |
| **Temporal komponentli verbalizatorlar** | Istiqbol, kelajak | Vatan – yoshlar salohiyati bilan bog‘ liq bo‘ lgan istiqbol |

**1-jadval. Saida Zunnunova she’riyatida «Vatan» konseptining leksik-semantik verballashuvi**

Yuqoridagi jadvaldan ko‘ rishimiz mumkinki, Saida Zunnunova poetik tilida Vatan konsepti ijtimoiy-axloqiy, bevosita, makoniy, chuqur emotsional va avlodlar davomoiyligini ifodalovchi temporal munosabatlar integratsiyasidan

iborat. Shoira she'riyatida Vatan konsepti abstrakt tushuncha sifatida emas, balki Vatan – ona, Vatan – makon, Vatan – uy, Vatan – kelajak, Vatan – muhabbat, Vatan – sog' inch singari konseptual metafora sifatida shakllanganini ham kuzatishimiz mumkin.

**Xulosa**

Vatan konsepti Saida Zunnunova poetik tilida ko' p qatlamli konseptual tuzlma sifatida verballashadi. Shoira leksik maydonlarning izchil qo' llash orqali Vatan konseptini shunchaki geografik hududdan insoniy qadr, haqiqat va adolat, baxt va shukronalik qaror topgan makon, har qarich yeri, har bir giyohi ham sevib arqodlanadigan suyukli maskan, mavhum g' oyadan hamdardlik, g' amxo' rlikni aks ettiruvchi tirik, muqaddas va jonli timsol sifatidagi konseptual ma'nolarni kashf etadi. Bir so' z bilan aytganda, Vatan konsepti shaxsiy emotsional tajriba bilan milliy-madaniy qadriyatlarni birlashtiruvchi konseptual birlik sifatida namoyon bo' ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словестности к структуре текста: Антология / Под общ. ред. В.П.Нерознака. – Москва: Академия, 1997. – С. 237-279.

2. Демьянков В.З.Термин «концепт» как елемент терминологической культуры // Язык как материя смысла: Сборник статей в честь академика Н.Ю.Шведовой / Отв. ред. М.В.Ляпон. – М.: Издательский центр «Азбуковник», 2007. (РАН: Институт русского языка им. В.В.Виноградова). – С.606-622.

3. Yo' ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. –B. 99.

4. Огнева Е.А. Когнитивное моделирование концептосферы художественного текста. 2-изд. дополн. –Москва: Эдитус, 2013. – С. 56.

5. Миллер Л.В. Художусевенный концепт как смысловая и эстетическая категория // Мир русского слова. 2000. № 4. – С. 39-45.

6. Степанов Ю.С. Концепты. Тонкая пленка цивилизации. – М: Языки славянской культуры, 2001. –С.43-46.

7. Xamidova G.P. O' zbek tilida «Vatan» konseptining pragmatik, kognitiv tadqiqi (Muhammad Yusuf ijodi misolida): filol. fanl. bo' yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Andijon, 2026. – B. 51.

8. Xalimova F.R. Poetik matnning konseptual maydoni va tarjimada qayta yaratilishi (ingliz va o' zbek tillari misolida): Filol.fanl.dok. (DSc) …diss. avtoref. – Buxoro, 2024. – B.16.

9. Саида Зуннунова. Танланган асарлар. Уч томлик. Биринчи том. –Тошкент: Ғофур Ғулом, 1976. – 365 б.

**References**

1. Askoldov S.A. Konsept i slovo // Russkaya i slovo // Russkaya slovesnost. Ot teorii slovestnosti k structure teksta: Antologiya / Pod obsh. Red. V.P.Neroznaka, Moskva: Akademiya, 1997, pp. 237-279. (in Russian).

2. Demyankov V.Z. Termin «konsept» kak element terminologicheskoy kulturi // Yazik kak materiya smisla: Sbornik statey v chest akademika N.Yu. Shvedovoy / Otv. red. M.V.Lyapon, M.: Izdateskiy sentr Azbukovnik, 2007. (RAN: Institut russkogo yazika im. V.V.Vinogradova), pp. 606-622. (in Russian).

3. Yo' ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi, Toshkent: Fan, 2008, pp. 99. (in Uzbek).

4. Ogneva Ye.A. Kognitivnoye modelirovaniye konseptosferi xidojestvennogo teksta. 2-izd. dopoln, Moskva: Editus, 2013, pp. 56. (in Russian).

5. Miller L.V. Xudojusevenniy konsept kak smislovaya i esteticheskaya kategoriya // Mir russkogo slovo, 2000, no. 4, pp. 39-45. (in Russian).

6. Stepanov Yu.S. Konsepti. Tonkaya plyenka svilizatsii, M: Yaziki slavyanckoy kulturi, 2001, pp. 43-46. (in Russian).

7. Xamidova G.P. O' zbek tilida «Vatan» konseptining pragmatik, kognitiv tadqiqi (Muhammad Yusuf ijodi misolida): filol. fanl. bo' yicha falsafa doktori (PhD) diss., Andijon, 2026, 51 p. (in Uzbek).

8. Xalimova F.R. Poetik matnning konseptual maydoni va tarjimada qayta yaratilishi (ingliz va o' zbek tillari misolida): Filol.fanl.dok. (DSc) …diss. avtoref., Buxoro, 2024, 16 p. (in Uzbek).

9. Saida Zunnunova. Tanlangan asarlar. Uch tomlik, Toshkent, G' ofur G' ulom, 1970, 365 p. (in Uzbek).